O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYAGA OID HUQUQIY ISLOHOTLARNING IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOLIQ TIZIMIGA TA’SIRI

Kenjaeva Durdona Ravshan qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
kenjaevadurdona1@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-son Qonuni bilan islomiy bank faoliyatini joriy etish bo‘yicha yaratilgan yangi huquqiy mexanizmlar va ularning iqtisodiyotning turli sohalariga ta’siri tahlil qilinadi. Xususan, islomiy bank xizmatlari, mikromoliyalashtirish, investitsiya faoliyati, tadbirkorlik, soliq tizimi hamda moliyaviy xizmatlar bozorida yuzaga keladigan o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, islomiy moliya operatsiyalariga qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i va boshqa soliqlarni qo‘llashning yangi tartibi hamda ayrim operatsiyalar uchun belgilangan soliq imtiyozlarining iqtisodiy ahamiyati baholanadi.*

Kalit so'zlar: *islomiy moliya, islomiy bank, O‘RQ-1126, soliq imtiyozlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i, investitsiya, mikromoliya, tadbirkorlik, moliya bozori.*

Аннотация. *В данной тезисной работе анализируются новые правовые механизмы, созданные в Республике Узбекистан Законом № ЗРУ-1126 от 27 марта 2026 года для внедрения исламской банковской деятельности, а также их влияние на различные отрасли экономики. В частности, особое внимание уделяется исламским банковским услугам, микрофинансированию, инвестиционной деятельности, предпринимательству, налоговой системе, а также изменениям, которые могут произойти на рынке финансовых услуг. Кроме того, оценивается экономическое значение нового порядка применения налога на добавленную стоимость, налога на прибыль и других налогов к операциям исламского финансирования, а также налоговых льгот, предусмотренных для отдельных видов операций.*

Ключевые слова: *Исламские финансы, исламский банк, ОРҚ-1126, налоговые льготы, налог на добавленную стоимость, инвестиции, микрофинансирование, предпринимательство, финансовый рынок.*

Abstract. *This thesis analyzes the new legal mechanisms established by Law No. O‘RQ-1126 of the Republic of Uzbekistan, dated March 27, 2026, for the introduction of Islamic banking activities and their impact on various sectors of the economy. Particular attention is paid to changes arising in Islamic banking services, microfinance, investment activities, entrepreneurship, the tax system, and the financial services market. The thesis also examines the new procedures for applying value-added tax, corporate income tax, and other taxes to Islamic finance transactions, as well as assesses the economic significance of tax incentives established for certain types of transactions.*

Keywords: *Islamic finance, Islamic banking, O‘RQ-1126, tax incentives, value-added tax, investment, microfinance, entrepreneurship, financial market.*

O‘zbekistonda moliya tizimini diversifikatsiya qilish, bank xizmatlari qamrovini kengaytirish va xalqaro moliya bozorlaridan qo‘shimcha investitsiya resurslarini jalb qilish sharoitida islomiy moliyani huquqiy jihatdan tartibga solish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, 2026-yil 27-martda qabul qilingan O‘RQ-1126-son “**O‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish” to‘g‘risidagi** Qonuni mamlakat moliya tizimida yangi bosqichni boshlab berdi[1].

Qonunning o‘zida uning islomiy bank xizmatlarini bosqichma-bosqich joriy etish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va sohaga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb etishga xizmat qilishi belgilangan. Mazkur qonunning ahamiyati faqat bank tizimiga kiritilgan o‘zgarishlar bilan chegaralanmaydi. O‘RQ-1126 bilan Markaziy bank faoliyati, bank va mikromoliya tashkilotlari, soliq munosabatlari, davlat boji, davlat xaridlari, litsenziyalash hamda banklardagi omonatlarni himoya qilish bilan bog‘liq qonunchilikka ham o‘zgartirishlar kiritilgan. Masalan, islomiy bank faoliyati uchun alohida litsenziya instituti belgilangan, islomiy banklarning kafolatlash tizimida ishtirok etishi nazarda tutilgan va ayrim davlat ulushi mavjud kredit tashkilotlarining islomiy moliya doirasidagi xaridlariga davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun talablari tatbiq etilmasligi belgilangan.

O‘RQ-1126-son Qonun bilan kiritilgan o‘zgarishlarning iqtisodiy ta’siri. O‘RQ-1126-son Qonunning o‘ziga xos jihati shundaki, islomiy moliyani joriy etish faqat bank qonunchiligiga o‘zgartirish kiritish bilan cheklanmagan. Qonun orqali

[1] O‘RQ-1126-сон 27.03.2026. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

Markaziy bank faoliyati, bank va mikromoliya tashkilotlari, soliqqa tortish, davlat boji, davlat xaridlari, litsenziyalash hamda omonatlarni kafolatlash kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan. Qonunda islomiy bank xizmatlarini bosqichma-bosqich joriy etish, moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘zda tutilgan. [2] Bundan tashqari, Markaziy bank islomiy banklarning likvidligini favqulodda qo‘llab-quvvatlashda islomiy moliya vositalaridan foydalanishi mumkin.

Birinchidan, islomiy moliyalashtirishning huquqiy tan olinishi **kichik va o‘rta biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalarini** kengaytirishi mumkin. Ayniqsa, tovar, uskuna, transport vositasi va boshqa real aktivlarni moliyalashtirishga asoslangan instrumentlarning qonuniy ishlashi tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyat yaratadi.

Ikkinchidan, qonun **investitsiya muhitiga** ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Qonunning o‘zida ham islomiy bank faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadi qayd etilgan. Shu jihatdan huquqiy bazaning yaratilishi O‘zbekiston bozoriga Shariatga muvofiq faoliyat yuritadigan xorijiy banklar va investorlarning kirishi uchun zarur institutsional shartlardan birini shakllantiradi.

Uchinchidan, **davlat ishtirokidagi banklar faoliyatiga** ham alohida ta’sir mavjud. Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan kredit tashkilotlarining islomiy moliya faoliyati doirasida mijozga topshirish yoki likvidlik jalb qilish maqsadidagi xaridlariga “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun talablari tatbiq etilmasligi belgilandi.

To‘rtinchidan, qonun **aholi jamg‘armalarini bank tizimiga jalb qilishga** ham ta’sir qilishi mumkin. Islomiy bank faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega banklarning kafolatlash tizimida ishtirok etishi majburiy etib belgilangan. Bu Shariat talablariga mos moliyaviy mahsulotlardan foydalanishni istagan mijozlar uchun huquqiy himoya mexanizmini kuchaytiradi.

Shunday qilib, O‘RQ-1126-son Qonunning iqtisodiy ahamiyatini faqat **“O‘zbekistonda islomiy banklar tashkil etilishiga ruxsat berildi”** degan mazmunda baholash yetarli emas. Qonun bank nazorati, Shariat boshqaruvi, likvidlik, soliqqa tortish, davlat boji, davlat xaridlari, mikromoliya va omonatlarni himoya qilish mexanizmlarini bir-biri bilan bog‘lash orqali **islomiy moliyaning alohida institutsional ekotizimini shakllantirish uchun huquqiy asos yaratdi**.

[2] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.03.2026 yildagi O‘RQ-1126-son

Soliq tizimiga ta’siri. Qonunning eng muhim yo‘nalishlaridan biri soliq tizimida islomiy moliya operatsiyalariga alohida tartibning shakllantirilganidir**.** Soliq kodeksiga maxsus 71²-bob: **“Islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari”** nomli maxsus bob kiritilib, islomiy moliya operatsiyalariga QQS, foyda solig‘i va boshqa soliqlarni qo‘llash xususiyatlari belgilandi[3]. Xususan, QQS bo‘yicha islomiy qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq ayrim operatsiyalar, ishonchli boshqaruv asosidagi ayrim xizmatlar, islomiy ijarada jami ijara to‘lovlari bilan sotib olish narxi o‘rtasidagi ijobiy farq hamda bank va mikromoliya tashkilotlari tomonidan mijozga realizatsiya qilinadigan tovarlarga qo‘yiladigan ustama QQSdan ozod etildi. Bunday tartibning iqtisodiy zarurati islomiy moliya operatsiyalarining tuzilishidan kelib chiqadi. Masalan, **an’anaviy kreditlashda** bank mijozga pul mablag‘i ajratsa, ayrim islomiy moliyalashtirish shakllarida bank avval aktiv yoki tovarni sotib olib, keyinchalik mijozga **realizatsiya** qiladi. Natijada iqtisodiy mohiyatan moliyalashtirish hisoblangan operatsiyada qo‘shimcha oldi-sotdi bosqichi paydo bo‘ladi. Agar unga oddiy tijorat savdosi kabi soliq qo‘llansa, islomiy mahsulot an’anaviy moliyalashtirishga nisbatan **qo‘shimcha soliq yukiga** duch kelishi mumkin.

Shuning uchun Soliq kodeksining yangi **480⁴-moddasi** ayrim operatsiyalarni QQSdan ozod qiladi. Jumladan, islomiy qimmatli qog‘ozlarga oid belgilangan operatsiyalar, ishonchli boshqaruv doirasidagi ayrim xizmatlar, islomiy ijarada jami ijara to‘lovlari bilan aktivning sotib olish narxi o‘rtasidagi ijobiy farq hamda bank va mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliya shartnomalari asosida mijozga realizatsiya qilinadigan tovarlarga qo‘yilgan ustama QQSdan ozod etilgan.

Bu yerda qonunning iqtisodiy mazmunini **“islomiy moliyaga soliq berilmaydi”** deb emas, balki **“islomiy moliyalashtirishning o‘ziga xos shartnomaviy tuzilishi sabab yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq neytralligi mexanizmi”** sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to‘g‘riroq. Quyidagi jadvalda esa Qonun qabul qilingungacha va keyingi davrda kutilayotgan natijalar muallif tomonidan ishlab chiqilgan (1-jadval)

1-jadval. O‘RQ-1126-son Qonun qabul qilinishidan oldingi va keyingi holatning qiyosiy tahlili

[3] O`zbekiston respublikasi Soliq kodeksi

Yo‘nalish	Avvalgi holat	O‘RQ-1126dan keyingi holat	Kutilayotgan iqtisodiy natija
Islomiy bank faoliyati	Maxsus bank faoliyati sifatida kompleks tartib mavjud emas edi	Islomiy bank faoliyati uchun alohida huquqiy va litsenziyalash mexanizmi yaratildi	Yangi bank xizmatlarining paydo bo‘lishi
Shariat boshqaruvi	Markazlashgan maxsus tizim mavjud emas edi	Markaziy bank huzurida Islomiy moliya kengashi nazarda tutildi	Standartlarning bir xilda qo‘llanishi
QQS	Islomiy moliyaning o‘ziga xos operatsiyalari uchun kompleks maxsus rejim mavjud emas edi	Soliq kodeksida ayrim operatsiyalar va daromad elementlariga QQS imtiyozlari belgilandi	Qo‘shimcha soliq yukining kamayishi
JShDS	Islomiy moliya orqali joylashtirilgan mablag‘lar daromadiga maxsus imtiyoz mavjud emas edi	Belgilangan shartlarda jismoniy shaxs daromadlari soliqdan ozod qilindi	Aholi mablag‘larini jalb qilish rag‘batlantiriladi
Davlat boji	Aktivning qo‘shimcha o‘tkazilishi xarajat keltirib chiqarishi mumkin edi	Belgilangan islomiy moliya operatsiyalari uchun imtiyoz nazarda tutildi	Tranzaksiya xarajatlari kamayadi
Likvidlik	Islomiy banklar uchun maxsus Shariatga mos mexanizm belgilanmagan edi	Markaziy bankning islomiy vositalar orqali likvidlik yordami nazarda tutildi	Moliyaviy barqarorlik uchun qo‘shimcha mexanizm
Omonatlarni himoya qilish	Maxsus islomiy bank modeli mavjud emas edi	Islomiy banklarning kafolatlash tizimidagi ishtiroki belgilandi	Omonatchilar ishonchini oshirish uchun huquqiy zamin

Manba: Muallif ishlanmasi

O‘RQ-1126-son Qonun bilan belgilangan soliq imtiyozlarining asosiy iqtisodiy vazifasi islomiy moliyalashtirishni an’anaviy moliyalashtirishga nisbatan sun’iy ravishda arzonlashtirish emas, balki islomiy moliya operatsiyalarining ko‘p bosqichli shartnomaviy tuzilishi sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha soliq va tranzaksiya yukini kamaytirish hamda moliyalashtirish shakllari o‘rtasida nisbatan neytral raqobat muhitini shakllantirishdan iborat.

XULOSA VA ILMIY-AMALIY TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari qonun bilan kiritilgan soliq mexanizmlari alohida iqtisodiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Islomiy moliyalashtirishning murabaha va ijara kabi shakllarida moliyaviy tashkilotning aktivni sotib olishi va uni mijozga berishi kabi qo‘shimcha huquqiy operatsiyalar mavjud. Ularga an’anaviy savdo bitimlaridagi soliq tartibining aynan qo‘llanishi islomiy moliyalashtirish uchun qo‘shimcha soliq yukini yuzaga keltirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, O‘RQ-1126 bilan ayrim operatsiyalar va daromad elementlariga belgilangan QQS imtiyozlari islomiy moliyaga oddiy preferensiya berishdan ko‘ra, **moliyalashtirishning an’anaviy va islomiy shakllari o‘rtasida soliq neytralligini ta’minlash mexanizmi** sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.Biroq qonun yaqinda kuchga kirganini hisobga olib, bunday natijalarni hozircha erishilgan iqtisodiy samara emas, balki **kutilayotgan ta’sir** sifatida baholash ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

Takliflar esa quyidagicha: Soliq neytralligi tamoyilini izchil saqlash. Islomiy moliya instrumentlarini soliqqa tortishda iqtisodiy mazmuni o‘xshash bo‘lgan an’anaviy va islomiy moliyalashtirish shakllari uchun imkon qadar teng soliq sharoitlarini ta’minlash zarur. **Soliq normalarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tushuntirishlarni ishlab chiqish.** Murabaha, ijara, mushoraka, mudaraba va boshqa operatsiyalarda QQS, foyda solig‘i hamda boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash bo‘yicha banklar, mikromoliya tashkilotlari va tadbirkorlar uchun aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi amaliyotdagi turlicha talqinlarning oldini olishga yordam beradi. **Aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish.** Islomiy bank mahsulotlari oddiy “foizsiz kredit” sifatida emas, balki o‘ziga xos shartnomalar, risklar va majburiyatlarga ega moliyaviy instrumentlar ekanini tushuntirish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida: O‘RQ-1126-son Qonun. — 2026-yil 27-mart. LexUZ
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan O‘RQ-1126-son Qonun. — 2026. Markaziy bank rasmiy sayti

3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Islomiy bank faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari belgilandi. — 2026-yil 2-aprel. Adliya vazirligi rasmiy sayti

4. EY Uzbekistan. Tax Treatment of Islamic Financial Transactions. — 2026-yil 8-may.

5. Asadov A., Turaboev I., Yildirim R. Prospects of Islamic Capital Market in Uzbekistan: Issues and Challenges // International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management. — 2024. — Vol. 17, № 1. — P. 102–123.

6. Asadov A. Empirical Analysis of Demand for Sukuk in Uzbekistan // Economies. — 2024. — Vol. 12, № 8. — 220. DOI: 10.3390/economies12080220.

7. Abrorov S., Imamnazarov J. Islamic Finance: New Prospects for Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. — 2022. — Vol. 3, № 12.

8. LexUZ. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. LexUZ

9. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. Soliq qo‘mitasining rasmiy sayti [Elektron resurs]. Soliq qo‘mitasi

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning rasmiy sayti [Elektron resurs]. Markaziy bank